

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIM MARKAZI

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Estetika

fanini kasbiy sohalarga yo'naltirib o'qitish metodikasi

**(o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari
uchun metodik qo'llanma)**

Toshkent – 2012

Mualliflar: F.f.d. prof. K.J.Tulenova, f.f.n. dot. M.Tilavoldiyeva, o'qit. U.Q.Mamayusupov, B.Hodjaev, SH.Zufarov.

Estetika fanini sohalarga yo'naltirib o'qitish. metodikasi

Annatatsiya

Mazkur metodik qo'llanma o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Unda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2010 yil 9 oktyabrdagi 2-sonli yig'ilish bayoni qaroriga muvofiq, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2010 yil 21 oktyabrdagi 396-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mo'ljallangan estetika fanidan uzviylashgan o'quv dastur asosida metodik tavsiyalar bayon etilgan. Ushbu qo'llanma o'quvchilarning tanlagan kasbiga bog'lagan holda o'qitish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda va kelgusida o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassislar bo'lib etishishlarida muhim rol o'ynaydi. Mavzularni kasbiy yo'naltirib o'qitish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan (misollar, qiyosiy materiallar, manbalar va boshqalar).

Taqrizchilar:

- 1.1-Respublika tibbiyot kolleji "Estetika" fani o'qituvchisi M.L.Sharipov.
2. "Mehr-shavqat" kasb-hunar kolleji o'qituvchisi N.F.Raximova

Metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Ilmiy kengashining 2012 yil 25 iyuldagi 11/1.20-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

© Nizomiy nomidagi TDPU

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus kasb – hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora – tadbirlar" to'g'risidagi qarori ta'lim mazmunini, uning samaradorligini yanada yaxshilashga qaratilgan.

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan o'rta maxsus kasb – hunar kollejlari uchun tayyorlanayotgan pedagog kadrlar sifatini tubdan yaxshilash, ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etish va tayyorlanayotgan o'rta bo'g'in mutaxassislari malakasining raqobatbardosh bo'lishiga erishish asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan tadbirlardan biri rejadagi umumta'lim fanlari qatori estetika fanini o'rgatilayotgan kasblarga yo'naltirgan holda o'qitish hisoblanadi.

Estetika fanini o'qitish hamda o'rganishning maqsadi estetik tafakkurning vujudga kelishi va taraqqiyotini, san'atdagi, turmushdagi, sanoatdagi tabiatdagi go'zallikning inson hayotidagi tutgan o'rnini ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga qaratilgan.

Kasb – hunar ta'lim tizimidagi turli sohalarga tegishli tayyorlov yo'nalishlarida estetika o'qitish jarayonini ularning kasbiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda innovatsion pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib noan'anaviy shaklda o'qitilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu metodik qo'llanmada estetikani kasbga yo'naltirib o'qitish bo'yicha dastlabki tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, u estetik bilim haqidagi umumiy fikrlar, o'qitishning maqsadi, mazmuni va vazifalari, sohaga yo'naltirish imkoniyatlari, pedagogik texnologiyalar, noan'anaviy mashg'ulotlarga oid namunaviy ishlanmalar keltirilgan. Bayon etilgan tavsiyalar, metodik yondashuvlar ixtiyoriy toifadagi amaliy mashg'ulotlarda foydalanilishi mumkin.

Yana shuni ta'kidlash joizki, mazkur metodik qo'llanma qat'iy qonun maqomidagi hujjat emas, u namunaviylik tabiatiga ega. Shu bois har bir o'qituvchi muayyan kasb-hunar kolleji yo'nalishidan kelib chiqib, qo'llanmadagi mavzularga yondashishlari yoki o'zgartirish kiritishlari mumkin.

I bob. Kasb – hunar ta'limida estetika

Jamiyatni modernizatsiya qilish — ta'lim tizimini isloh qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim tizimi jamiyatga yuksak bilimli va yuqori malakali mutaxassislar etkazib berishi kerak.

Tayyorlanayotgan mutaxassislarga qo'yilayotgan zamonaviy talab ta'lim jarayonini yangicha tashkil etishni taqozo etmoqda. Chunki mutaxassis shaxsining kasbiy shakllanishi umumkasbiy, maxsus va tabiiy – ilmiy (fundamental) fanlarni o'zlashtirish jarayonida amalga oshadi.

Respublikamizda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida o'qitilayotgan ijtimoiy fanlar qatorida estetika fani ham alohida o'rin tutadi.

Mustaqillik barcha ijtimoiy fanlar, ayniqsa estetika fanining rivoji uchun ham imkoniyat yaratdi. Endi biz o'tmishdagi boy ma'naviy merosimiz durdonalarini haqiqiy, ilmiy ma'noda o'rganish baxtiga musharraf bo'ldik.

Prezidentimiz Islom Karimov ishonch bilan aytganlaridek, O'zbekistonning kelajagi buyukligi avvalo, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, siyosiy, estetik jihatdan kamol topishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Bugungi kunda estetika turmushumizning barcha sohalariga kirib bordi, desak yanglishmaymiz. Estetika va ishlab chiqarish, texnika estetikasi va dizayn, tabiat estetikasi, mehnat va nafosat, turmush estetikasi shular jumlasidandir. Bular estetik ong, estetik munosabatni shakllantiradi va bo'lajak mutaxassisning kasbiy sifatlarini belgilaydi.

Mutaxassisda estetikaning boshqa predmetlar bilan o'zaro aloqadorligi tizimi bo'yicha dunyoqarashni shakllantirish muhimdir.

Estetikani zamonaviy o'qitish tizimi uning amalda kasbiy qo'llanilishini ta'minlashi va ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish masalasiga yordam berishi zarur.

Estetika o'qitishdagi asosiy muammolardan biri o'quvchilarning ushbu fan bo'yicha bilimlarning kelgusidagi amaliy foydali tomonini yaqqol ko'ra bilmasligidir.

Maqsad, o'quvchi o'z bilimlaridan kelgusida o'rganayotgan kasbi bo'yicha turli masalalarni yechishga amaliy qurol sifatida foydalana olsin. Agar u yetarli bo'lmasa, qo'yilgan masalani mustaqil yechishga ham tayyor bo'lsin.

Estetika kursini o'rganishda o'quvchilarning ijodiy faolligi muhimdir. Mustaqil ishlar va referatlar mavzulari estetikani kasbiy yo'naltirilgan jihatlarini qamrab olishi zarur.

1.1. Estetika fanining predmeti, maqsadi, vazifalari va ahamiyati

Estetika fanini o'qitish hamda o'rganishning **maqsadi** estetik tafakkurning vujudga kelishi va taraqqiyotini, san'atdagi, turmushdagi, sanoatdagi, tabiatdagi nafosatning, go'zallikning inson hayotida tutgan o'rnini o'quvchilarga ilmiy nuqtai nazardan tushuntirishga qaratilgan;

Estetika fanining **vazifalari**:

- o'quvchilarda estetik ong va ijodiy qobiliyatning shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'maklashishdan;
- milliy va umumbashariy estetik qadriyatlarning mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi ahamiyatini ko'rsatib berishdan;
- yosh avlodda go'zallikka, ulug'vorlikka nisbatan muhabbat hissini shakllantirishdan;
- o'quvchilarga haqiqiy san'at asarlarining millat va jamiyat hayotidagi ulkan ma'naviy hodisa ekanini uqtirishdan, ularda san'atni chuqur tushunish malakasini hosil qilishdan;
- texnika estetikasi va uning amaliy ko'rinishi bo'lmish dizaynning, tabiat estetikasi, turmush estetikasi hamda sport estetikasining erkin, demokratik jamiyat taraqqiyotidagi beqiyos ahamiyatini o'quvchilarga anglatishdan;
- estetika fanini o'qitish va o'rganishda ijodiylik, ilmiylik, tarixiylik hamda olimona xolislik tamoyillariga amal qilishdan;
- ma'ruza va seminar mashg'ulotlarda, yoshlarni imkon boricha ko'proq manbalarga murojaat qilishlariga;
- amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilarning estetik voqelik va estetik ob'ektlar bilan bevosita munosabatda bo'lishlariga erishishdan iborat.

Estetika fanini o'qitishning *ahamiyati* o'quvchilarning shaxs sifatida ham, fuqarolik jamiyati a'zosi sifatida ham - har jihatdan go'zallikka oshno, yuksak did egasi qilib tarbiyalashga ulkan hissa qo'shishi bilan belgilanadi.

1-jadval

Estetika kursi mavzulari va dars soatlari taqsimoti

No	Boblar va mavzular	Ma'ruza	Amaliy mashg'u lot	Semi nar
Birinchi bo'lim. Estetikaga kirish				
1-mavzu	Estetikaning predmeti, tadqiqot doirasi va vazifalari	2		2
Ikkinchi bo'lim. Estetik tafakkur taraqqiyotining asosiy bosqichlari				
2-mavzu	Qadimgi dunyo estetikasi	1		1
3- mavzu	O'rta asrlar mutafakkirlarining estetik ta'limotlari	1		1

4- mavzu	Yangi davr estetikasidagi asosiy oqimlar va yo'nalishlar	1		1
5- mavzu	Turkiston ma'rifatchi-jadidlarining estetik qarashlari	1		1
Uchinchi bo'lim. Estetika nazariyasi				
6-mavzu	Estetik ong va estetik faoliyat	2		2
7-mavzu	Estetikaning asosiy tushunchalari	2		2
To'rtinchi bo'lim. Amaliy estetika				
8-mavzu	San'at estetikasi	4	2	2
9-mavzu	Tabiat estetikasi	1	1	
10-mavzu	Texnika estetikasi	1	2	
11-mavzu	Turmush estetikasi	1	1	
12-mavzu	Sport estetikasi	1	2	
13-mavzu	Estetik tarbiya	2		
Jami:		20	8	12

Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning kasb-hunarga layoqatlarini, bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishi, ularning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasblarni egallash imkonini beradi. Mutaxassisliklar talablaridan kelib chiqadigan ta'limning maqsad va vazifalarining murakkablashuvi kasb-hunar kollejlari talabalarining estetik bilimlarini kasbga yo'naltirishning shakl va metodlarini estetikaning turdosh, kasbiy fanlar bilan o'zaro aloqadorligini va izchilligini kuchaytirgan holda takomillashtirishni taqozo etmoqda.

1.2. Estetikani ta'lim sohalariga yo'naltirish imkoniyatlari

Dastlab mundarijada (II bob) sanab o'tilgan ta'lim sohalarida estetikaning o'zni haqidagi ba'zi fikrlarimizni keltirib o'tamiz.

1. Ba'zan aniq yoki tabiiy soha vakillarining bizga estetik bilim kerakmi degan savoliga ro'para kelamiz. Albatta kerak! Shu erda Tomas Manro va Eten Surio fikrini keltiramiz: "Etikasi, estetikasi yo'q davlat qoloq davlat, estetikasi, etikasi yo'q millat qashshoq millatdir".

San'atning mohiyati, mazmuni va jamiyatdagi o'zni. San'at va estetikaning shaxs kamolatiga ta'siri. Estetika va sportning uzviy bog'liqligi. Sport estetikasining mohiyati. Sport estetikasining barkamol avlod shakllanishidagi o'zni. Musiqaning

inson hissiyotiga ta'siri, uning estetik ehtiyojlarini qondirishdagi o'rni kabi ko'plab misollarni keltirish mumkin.

2. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashda estetik ong ahamiyatini tushuntirib berish. Estetik did, estetik baho, estetik ehtiyojning roli va ularning mahsulot haridorgirligini ta'minlashdagi ahamiyati

3. Sanoat, qurilish va transport sohalari uchun, umuman texnik yo'nalishdagi mutaxassislar tayyorlashda umumkasbiy va maxsus fanlar kabi estetik bilimlar o'qitiladi. Estetikaning ushbu sohalar bo'yicha mutaxassis tayyorlashdagi roli beqiyosdir.

Ilmiy texnik taraqqiyot va ishlab chiqarishdagi estetik faoliyat. Dizaynning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati, texnika estetikasining zamonaviy ishlab chiqarishdagi foydali jihatlarini o'rganish o'ta muhimdir.

4. Go'zallik inson estetik didini o'stiradi. Qishloq xo'jaligida dalalarni va irrigatsiya shaxobchalarini loyihalash, turli xil ekinlar ekiladigan yerlarni o'lchash, rejalashtirish, ularga dizayn berish, ekiladigan ekin turlarining xosildor ko'rkam turlarini seleksiya yo'li bilan yaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini estetik jihatdan talab darajasida qayta ishlashning usullarini ishlab chiqishda estetikadan keng foydalaniladi.

5. Sog'liqni saqlash tizimi va farmakologiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlashda estetika aloxida ahamiyat kasb etadi. Bu sohalarni yuksak taraqqiyotida estetik bilimlar muhim o'rin tutadi. Tibbiyot xodimining kiyinish madaniyati, bemor bilan munosabat va unga xizmat ko'rsatishi, tibbiy jihoz va anjomlarni yaratish kabi jarayonlarda estetik faoliyatning bugungi kun tibbiyoti bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin.

6. Hozirda xususiy tadbirkorlikka keng imkoniyatlar berilganligi sababli ayniqsa xizmat ko'rsatish sohasi tez rivojlanmoqda. Bunda umumiy ovqatlanish, servis xizmati (transport va maishiy sohalarda), sport, turizm va atrof – muhit muhofazasi bo'yicha ekolog mutaxassislar tayyorlashda ham estetik bilim muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi go'zallikka intilish insonning doimiy ijtimoiy-hayotiy ehtiyojidir. Go'zallikka intilish insonni ma'naviy jihatdan kamolatga yetaklaydi, uning his tuyg'ularini rivojlantiradi.

1.3. "Estetika" fanini o'qitish jarayonida ilg'or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo'llash

Pedagogik texnologiya terminini ishlatishda bir necha talqinlar mavjud.


Pedagogik texnologiya o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmagan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan, o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayonining loyihasidir (I.P.Bespalko).

Pedagogik texnologiyaning mohiyati didaktik maqsad, talab etilgan o'zlashtirish darajasiga erishishdan iborat bo'lib, uni tatbiq etishni hisobga olgan holda ta'lim jarayonini ilgaridan loyihalashtirishda namoyon bo'ladi.

Pedagogik texnologiya – texnika resurslari, odamlar va ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda ta'lim shakllarini optimallashtirish vazifasini qo'yuvchi o'qitish

va bilimlarni o'zlashtirishning hamma jarayonlarni yaratish, qo'llash va aniqlashning tizimli metodi.


Pedagogik texnologiya bu – yakka tartibdagi pedagogik jarayon bo'lib, u talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan o'quv jarayonidir.



Hozirgi mavjud bo'lgan pedagogik texnologiyalarni bir qancha belgilariga qarab turlash mumkin.



Estetika darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalari asosida tashkil etilganda quyidagi interfaol usullardan foydalanish mumkin.



KEYS – TEXNOLOGIYASI HAQIDA MA’LUMOT

Keys-stadi inglizcha *sase - to’plam*, aniq vaziyat, stadi –ta’limdir.

Keysda bayon qilingan va ta’lim oluvchilarni muammoni ifodalash hamda uning maqsadga muvofiq tarzdagi yechimi variantlarini izlashga yo’naltiradigan aniq real yoki sun’iy ravishda yaratilgan vaziyatni muammoli-vaziyatli tahlil etishga asoslaniladi.

Keys-stadi - ta’lim, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo’yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keysda bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o’quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo’lgan ta’lim texnologiyasidir.

Keys ilk marta Garvard universitetining huquq maktabida 1870 yilda qo’llanilgan edi. 1920 yilda Garvard biznes-maktabi (HBS) o’qituvchilari yuristlarni o’qitish tajribasiga tayanib, iqtisodiy amaliyotdagi aniq vaziyatlarni tahlil etish va muhokama qilishni ta’limning asosiy usuli etib tanlashganidan keyin mazkur o’qitish uslubi keng tatbiq etila boshladi.

Talabalar tomonidan keysni yechish texnologiyasi:

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo’yicha *individual (auditoriyadan tashqari)* ish.

Ikkinchi bosqich – keys bilan *birgalikda jamoa bo’lib (auditoriyada)* ishlash.

Birinchi bosqich – keysni hal etish bo’yicha individual ish

O’quvchi mustaqil ravishda:

- keys materiallari bilan tanishadi;
- taqdim etilgan vaziyatni o’rganadi, izohlaydi va asoslaydi;

- muammo va muammo osti muammolarni ajratadi,
- vaziyatni tadqiq va tahlil qilish usullarini tanlaydi;
- berilgan amaliy vaziyatni tahlil qiladi;
- ajratilgan muammoni hal etish usullari va vositalarini belgilaydi va asoslaydi;
- taklif etiladigan qarorni amalga oshirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqadi.

Ikkinchi bosqich – keys bilan birgalikda jamoa bo'lib ishlash

- Talabalar kichik guruhlariga bo'linib, keys bilan birgalikda ishlashadi;
- guruh a'zolarining vaziyat, asosiy muammolar va ularni hal etish yo'llari haqidagi turli tasavvurlarini muvofiqlashtirishadi;
- yechimning taklif etilgan variantlarini muhokama qiladilar va baholaydilar, qo'yilgan muammo nuqtai nazaridan ushbu vaziyat uchun eng maqbul variantni tanlashadi;
- muammoli vaziyat echimiga olib keladigan tanlangan harakatlar yo'lini amalga oshirishning aniq qadamba-qadam dasturini batafsil ishlab chiqadilar;
- taqdimotga tayyorlanadi va namoyish etiladigan materialni rasmiylashtirishadi.

Keysni yechish natijalarini kichik guruhlar tomonidan taqdimotini o'tkazish:

muammoli vaziyat yechimining o'z variantini taqdim etadi;

tanlangan harakatlar yo'lini izohlaydi va uning oqilonaligini asoslaydi;

boshqa guruhlar qatnashchilari savollariga javob beradi va o'z takliflarini aniqlashtiradi.

Jamoa bo'lib keys ustidan ishlash:

guruhlar taklif etgan yechimlar variantlarini muhokamasi;

taklif etgan yechimlarning o'zaro baholanishi.

Taklif etilgan yechimlarning xayotiyliigi va amalga oshirilishi mumkinligiga birgalikda (talabalar va o'qituvchi) baho berilishi ham mumkin.

O'qituvchining harakatlarining izchilligi:

- o'qituvchi mashg'ulot mavzusi va maqsadini ma'lum qiladi;
- talabalarining prognoz qilinadigan ta'limdagi yutuqlari ro'yxatini e'lon qiladi;
- o'quv mashg'ulotining tartibi va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;
- o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlarini e'lon qiladi;
- talabalarda bo'lg'usi o'quv faoliyatiga qiziqishni shakllantirish maqsadida keysning vazifasini va uning professional bilimlar va malakalarni rivojlantirishga ta'sirini tushuntirib beradi.
- talabalarining o'quv mavzusi kursi bo'yicha bilimlarini dolzarblashtirish ishidan boshlanadi va bu ish blits-so'rovnoma yoki savol-javob shaklida o'tkaziladi.

O'quvchilarning auditoriyadagi keys bilan ishini tashkil etishga kirishishda o'qituvchi keys mavzusi bo'yicha adabiy manbalardan parchalarni o'qib berishi,

korxona – amaliy vaziyat ob’ekti – mahsulotlarini namoyish qilishi mumkin – bu vaziyatga oid mashq muammosiga qiziqish uyg’otish yoki yangi g’oyalarni qo’shishning muayyan usulidir.

O’quv mashg’ulotining asosiy bosqichi

Keys bilan shundan keyingi ish quyidagilarga bog’liq bo’ladi:

- ish o’quv rejasiga ko’ra ajratilgan vaqtga ,
- keys o’lchami va uning maqsadlari ,
- tanlangan ta’lim modeliga ,
- o’quv mashg’ulotining loyihalashtirilgan texnologik chizmasiga
- rejalashtirilgan ta’lim texnologiyasi bilan belgilanadi.
- Keys bilan yakka tartibda ishlashni tashkil qiladi.
- Keys bilan jamoa bo’lib ishlashni tashkil qiladi: talabalarga aqliy hujum o’tkazishni taklif qiladi – keysda taqdim etilgan muammoli vaziyatni hal etish g’oyalari generatsiyasi

O’quv mashg’ulotining yakunlovchi-baholovchi bosqichi

O’qituvchi harakatlarining izchilligi:

- mavzu bo’yicha xulosa chiqaradi, talabalar e’tiborini asosiy jihatga qaratadi;
- bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyat uchun ahamiyati haqida so’zlaydi;
- guruhlar, ayrim o’quvchilar faoliyatini baholaydi o’zaro baholashlarga yakun yasaydi;
- o’quv mashg’uloti maqsadiga erishganlik darajasini tahlil qiladi va baholaydi.

LOYIHA TEXNOLOGIYASI

Loyihaviy ta’lim quyidagi dolzarb ta’lim muammolarini hal etish imkonini beradi va davr talabiga mos keladi:

- ta’limni real hayotga yuqori darajada yaqinlashtirilgan vaziyatda amalga oshirishni ta’minlaydi;
- nazariy ma’lumotlarni amaliy faoliyat bilan bog’lash va o’quvchilarni faol mustaqil bilish jarayoniga jalb etish imkonini beradi
- kasbiy va tayanch layoqatlarini shakllantirish va rivojlantirishni ta’minlaydi

Loyiha (design - dizayn) – ba’zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo’yicha hujjatlar yig’indisi.

Loyiha (projekt) – tushunchasi kengroq ifodalanib, ma’lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish - («loyiha» soʻzidan) – real natijaga olib keluvchi, qatʼiy tartibga solingan harakatlar izchilligini oʻz ichiga oluvchi muammoni oʻzgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Taʼlim maʼnosidagi loyihalashtirish - oʻqituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish boʻyicha faoliyatni rejalashtirish va tashkil etishdan to (intellektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal etish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini taʼminlovchi maxsus (laboratoriya sharoitlarida) tashkil etilgan maqsadli oʻquv faoliyatidir.

Loyihaviy taʼlim - taʼlim modeli boʻlib, unda oʻqituvchi tomonidan loyihalash koʻrinishiga ega, muammoni izlash, uni tadqiq etish va hal etish, muayyan, beqiyos, shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega natija (mahsulot) ga erishish, uni ommaviy taqdim etish va jamoatchilik tomonidan baholanishini tashkil etish va rejalashtirishni anglatuvchi, mustaqil oʻquv faoliyati tashkil etiladi.

Oʻquv loyihaviy faoliyatning bosqichlari

Oʻquv loyihaviy faoliyat -bu qoʻyilgan vazifaga erishish, taʼlim oluvchilar uchun muhim va aniq foydalanuvchiga moʻljallangan biror-bir yakuniy maʼlumot koʻrinishida rasmiylashtirilgan, muammoni echish uchun taʼlim oluvchilarning belgilangan izchillikdagi harakatlari majmuasi

Tayyorgarlik bosqichi: loyihaga kirishish, loyiha faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish – auditoriya ishi.

Loyihani bajarish bosqichi: auditoriyadan tashqari

YAkunlovchi bosqich: loyiha taqdimoti, oʻquvchilar mahsuloti va loyiha faoliyatining baholanishi, loyiha faoliyati refleksiyasi – auditoriya ishi.

OʻQUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROTSESSUAL TUZILMASI (1-BOSQICH) Tayyorlov: “loyihaga kirish” fazasi

Oʻquvchilar amalga oshirishadi:

- vaziyatga moslashish;
- muammoni shaxsan oʻzlashtirish (muammoni tushunish va amaliy faoliyatning muayyan sohasi uchun uning echimi dolzarb va muhimligini anglash);
- loyihaning maqsadi, muammoni hal etish masalalarini qabul qilish, aniqlashtirish va muayyanlashtirish;
- loyihaning natijasi (mahsuloti) va uni taqdim etish shakllarini anglash, loyihaning boshqa ishtirokchilari va oʻqituvchi bilan muloqotning xarakteri.

Talabalar loyiha ustida ishlash shakllarini tanlashadi: alohida yoki guruh boʻyicha. Agar guruhli shakl tanlangan boʻlsa:

- guruhlarga birlashishadi;
- loyiha boʻyicha ishlar turlarini ajratib, qatnashchilar orasida taqsimlashadi;

- loyiha bajarish bo'yicha ishchi rejasini ishlab chiqishadi;
- uni bajarishning optimal usullari va vositalarini tanlashadi;
- natija taqdimotini rasmiylashtirish usullari va shakllarini belgilashadi;
- loyiha ma'suli, hisobot va taqdimotni baholash mezonlarini muhokama qilishadi.

O'QUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROTSESSUAL TUZILMASI

(2-BOSQICH) Loyihani bajarish.

Loyihaning ushbu davrida talabalar o'zlarining vazifalari bilan muvofiq tarzda va ma'lum qilgan holda faol va mustaqil ishlaydilar:

- turli manbalardan axborot to'plash, tahlil etish va umumlashtirish ishlarini olib boradilar;
- tadqiqot o'tkazadilar, hisob-kitoblarni bajaradilar;
- zarurat tug'ilganda maslahatlashadilar;
- oraliq natijalarni muhokama qiladilar;

hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini

O'QUV LOYIHAVIY FAOLIYATNING PROTSESSUAL TUZILMASI (3-BOSQICH) Yakuniy: taqdimot, himoya, baholash, refleksiya

- Loyihaning jamoa taqdimoti vaqtida quyidagilarni aks ettirishadi:
- muammo, maqsad va vazifalarni tushunish;
- ishni rejalashtirish va amalga oshirishni bilish;
- echimlarni izlash jarayonini tahlil qilish;
- Loyihalar va taqdimotni o'zaro baholashadi
- Faoliyat va natijaning refleksiyasini amalga oshirishadi: ish davomida va yakunida yuzaga kelgan yutuqlarini anglash, yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil qilish, shaxsiy o'zgarishlarini anglashni namoyon etadi.
- Loyiha faoliyati haqida hisobot topshirishadi

O'quv loyihasi uslubiy pasportining tuzilishi:

1. Pedagogik annotatsiya
2. Loyiha topshirig'i
3. Talabalarga uslubiy ko'rsatmalar
4. Loyihali ta'limning texnologik xaritasi

Pedagogik annotatsiyaning tuzilishi

- O'quv predmeti
- O'quv mavzusi
- Qatnashchilar
- Ta'limning maqsadi

- Rejalashtiriladigan o'quv natijalari
- O'quvchilar loyihani muvaffaqiyatli hal etish uchun egallashi lozim bo'lgan oldingi bilim va ko'nikmalar ro'yxati
- Loyihaning turlanish belgilariga ko'ra tavsifnomasi
- Loyihani bajarish tartibi
- Loyihaning baholanishi
- Loyihaviy ta'limni tashkil etish bosqichlari
- Ta'lim modelining qisqacha tavsifnomasi
- hammadan olingan natijalarning umumiy to'planishi va muhokamasini o'tkazadilar.

«T» SXEMA JADVALI

Ushbu interfaol usul orqali voqeylikka, ob'ektga nisbatan munosabat bildirish uchun qo'llash mumkin. 1-bosqichda talabalar ushbu sxemani tuzish qoidalar bilan tanishtiriladi. 2-bosqichda yakka, juftlikda yoki guruh ichida sxema asosida taqqoslash faoliyati tashkil etiladi va 3-bosqichda yagona jadvalga tushiriladi

«T» sxema jadvali

+ (ha, ijobiy)	- (yo'q, salbiy)

FSMU TEXNOLOGIYASI

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminari yakunida talaba (o'quvchi)larning o'quv mashg'ulotlari hamda o'tilgan mavzu va bo'limlardagi ba'zi mavzular, muammolarga nisbatan fikrlarini bilish maqsadida yoki o'quv rejasi asosida biror-bir bo'lim o'rganilgach qo'llanilishi mumkin. Chunki bu texnologiya talaba (o'quvchi)larni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan qatorda o'quvchi-talabalar tomonidan o'quv jarayonida egallangan bilimlarini tahlil etishga, baholashga hamda bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

Ushbu texnologiya talaba (yoki o'quvchi)larni tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

FSMU jadvali

F (Fikringizni bayon eting).
S (Fikringiz bayoniga biror sabab ko'rsating).
M (Ko'rsatilgan sababga tushuntiruvchi misol keltiring).
U (Fikringizni umumlashtiring).

«BLITS - SO'ROV» TEXNOLOGIYASI

Blits-so'rov – o'yinli so'rov ma'ruza jarayonida o'quvchilarni eslab qolgan narsalarini yana bir marta aytilganlarni qaytarib aytishi bo'lib, biror jarayonning ketma-ketligini to'g'ri joylashtirishga, bu jarayon haqida guruh a'zolari va boshqa guruhlarining a'zolarifikrlari bilan tanishishga imkon beradi.

Harakatlar ketma-ketligi avval yakka holda mustaqil ravishda belgilab, so'ngra o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar fikri bilan tanishishiga yordam beradi.

«Blits - so'rov» texnologiyasini o'tkazish bosqichlari

O'qituvchi agar, o'quvchilar bilmasa o'zi tushuncha beradi, ularni sharhlab beradi.

«Blits-so'rov» savollari

№	Savollar	Javoblar
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		
6.		

“Insert usuli”

Insert - samarali o’qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o’qib-o’rganishda yordam beradi. Bunda ma’ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o’qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o’z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma’lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o’ylantirdi. Bu borada menga qo’shimcha ma’lumot zarur.

Insert jadvali

Tushunchalar	V	+	-	?

II. "Estetika" fanini ta'lim sohalariga yo'naltirish bo'yicha tavsiyalar.

2.1. Ta'lim, gumanitar fanlar va san'at-200 000

T\R	Bo'lim va mavzularning nomi	Ta'lim, gumanitar sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
1.	Mavzu. Estetika fanining predmeti, uning maqsad va vazifalari. Estetika – nafosatning mohiyatini o'rganuvchi qadimiy fan sifatida. Estetika faninig falsafiy mohiyati. Estetika fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi: Estetika va falsafa: estetika va axloqshunoslik; estetika va psixologiya; estetika va dinshunoslik; estetika va pedagogika; estetika va ekologiya. Amaliy mashg'ulot savollari: 1. Estetika nafosatning mohiyatini o'rganuvchi qadimiy fan sifatida. 2. Estetikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi va hamkorligi. 3. Estetika fanining asosiy vazifalari.	<u>Sohaga bog'lash:</u> Mavzuni sohaga bog'lash uchun eng avvalo, estetika nafosatning mohiyatini o'rganuvchi fan sifatida, barcha gumanitar sohalarida alohida o'rni borligini e'tirof etish zarur. Estetika fanini o'qitish hamda o'rganishning maqsadi barcha gumanitar va san'at sohalarida estetik ongni shakllantirish hisoblanadi. Mashg'ulotda estetik tafakkurning vujudga kelishi va taraqqiyoti, san'atdagi, turmushdagi, sanoatdagi, tabiatdagi nafosatning, go'zallikning inson hayoti va faoliyatining barcha sohalarini o'z ichiga qamrab olganligini misollar asosida ilmiy yoritish maqsadga muvofiq. <u>Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash:</u> . Seminar mashg'ulotini samarali va yuqori saviyada o'tkazish uchun mavzuga oid turli o'quv vizual materiallarni sohaga bog'lab tushuntirish darsning yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi. Keys-stadi, Blits-so'rov, B.B.B. usuli asosida olgan bilimlarini tekshirib borish tavsiya etiladi. Seminar mashg'ulotining samaradorligini oshirish maqsadida videoma'ruza,

		multimediya vositalari, grafproektor, flip-chat va boshqa kompyuter vositalarini qo'llash jarayonlarini oldindan texnologik xaritada rejalashtirib olish maqsadga muvofiq.. <u>Adabiyotlar:</u> 1. I.A. Karimov Istiqlol va ma'naviyat. -T.:, 1994. 2. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar. - T.:, 2000. 3.I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.- T., "Ma'naviyat" 2008. 4. E.Umarov. Estetika asoslari. - T.:, 2003. 5. Guliga A. Printsipi estetiki. - M.:, 1987 6. Estetika. Slovar. -M.:, 1989
--	--	---

2.2. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq-300 000

T\R	Bo'lim va mavzularning nomi	Ta'lim, gumanitar sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
1.	Mavzu. Qadimgi dunyo estetikasi Sharq-qadimgi dunyo estetikasining beshigi. Somir (Shumer) va Bobilonda dastlabki estetik g'oyalarning shakllanishi. Qadimgi Misrda vujudga kelgan san'at turlarining estetik mohiyati. Qadimgi Turon va Erondagi estetik g'oyalar. «Avesto»ning falsafiy -estetik mohiyati. Hindi-Xitoy mintaqasidagi san'at taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari.	<u>Sohaga bog'lash:</u> Mavzuni sohaga bog'lash uchun qadimgi dunyo estetikasining insoniyat ma'naviy-madaniy olamining vujudga kelishidagi o'rni. U ijtimoiy hayotning barcha sohalarini jumladan, iqtisodiyot va huquqdagi ahamiyatini ilmiy yoritish maqsadga muvofiq. Qadimgi ko'hna Sharq (Bobil, Misr, Hindiston, Xitoy va Markaziy Osiyo) nafosati, jumladan, xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan

Antik dunyoning mumtoz estetikasi. Qadimgi Yunoniston allomalari Suqrot va Aflotunning estetik qarashlari. Arastuning estetik ta'limoti va uning qadimgi dunyo estetik tafakkurida tutgan o'rni. Mashg'ulot rejasi. 1. Ko'hna Sharq qadimgi dunyo nafosat ilmining beshigi sifatida. 2.«Avesto» va undagi estetik g'oyalar. 3. Qadimgi Hindi-Xitoy mintaqasidagi estetika va san'at taraqqiyoti. 4. Qadimgi dunyoning mumtoz estetikasi.	Zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi "Avesto"da aks etgan estetik g'oyalar hozirgacha ahamiyatini yo'qotmaganligi, Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq sohasida qadimgi dunyo estetikasining muhim o'rin tutishini ta'kidlash zarur. <u>Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash:</u> Seminar mashg'ulotini samarali va yuqori saviyada o'tkazish uchun o'quv vizual materiallar, Blits-so'rov va qanday organayzeridan foydalanish tavsiya etiladi. Seminar mashg'ulotining samaradorligini oshirish maqsadida, multimediya vositalari, grafik organayzerlar, grafproektor, flip-chat va boshqa kompyuter vositalarini qo'llash jarayonlarini oldindan texnologik xaritada rejalashtirib olish maqsadga muvofiq.. <u>Adabiyotlar:</u> 1. Avesto. 2001. 2. Aristotel. Poetika. -T.:, 1980. 3. Mahmudov T. «Avesto» haqida. -T.:, 2000. 4. Homidov H. «Avesto» fayzlari. 5. Istoriya esteticheskoy mysli. V 6 tomax, t-1. -M.:, 1985. 6. Kultura Drevnego Egipta. - M.:, 1976. 7. Kramer S. Istoriya nachinaetsya v Shumere. -M.:, 1989. 8. Poeziya i proza Drevnego Vostoka. -M.:, 1973. Estetika. Slovar. -M.:, 1989
--	--

2.3. Muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari-500 000

T\R	Bo'lim va mavzularning nomi	Ta'lim, gumanitar sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
1.	Mavzu. O'rta asrlar mutafakkirlarining ta'limotlari Umumjahoniy dinlar va ularning san'at bilan o'zaro hamkorligi. San'at turlarining shakllanishi va taraqqiy etishida dinning ahamiyati. O'rta asrlar musulmon Sharqi estetikasida mashshoiyyunlik va tabiiyyunlik yo'nalishlarining qaror topishi (Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Umar Xayyom). Tasavvuf estetikasining vujudga kelishi (Fazzoliy, Rumi). O'rta asrlar budda SHarqi estetikasining alohida xususiyatlari. Mashg'ulot rejasi 1.Umumjahoniy dinlar va ularning san'at bilan o'zaro hamkorligi. 2.O'rta asrlar budda Sharqi estetik tafakkuri. 3.O'rta asrlar musulmon Sharqi mutafakkirlarining estetik qarashlari. 4. O'rta asrlar Ovro'pa estetikasi	Sohaga bog'lash: Mavzuni sohaga bog'lash uchun O'rta asr mutafakkirlarining estetik ta'limotlari, shu davrda yaratilgan madaniy obidalar, arxitektura va muhandislik sohasida erishilgan yutuqlar, ularning xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi ahamiyati haqida misollar yordamida tushuntirish tavsiya etiladi. Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash: Seminar mashg'ulotini samarali va yuqori saviyada o'tkazish uchun o'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash, Aqliy xujum, , BBB, Venn diagrammasi va Insert kabi metodlaridan keng foydalanish mumkin. Seminar mashg'ulotining samaradorligini oshirish maqsadida videoma'ruza, multimediya vositalari, didaktik materiallar va boshqa kompyuter vositalarini qo'llash jarayonlarini oldindan texnologik xaritada rejalashtirib olish maqsadga muvofiq. Adabiyotlar: 1.Ibn Sino. Salomon va Ibsol. - T., 1980, Alisher Navoiy. Majolis un-nafois//Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 20 jildlik, 13-jild. - T.,: «Fan», 1997, Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub //Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik,

		14-jild, -T.:, «Fan», 1997, Forobiy. Fozil shahar odamlari. - T.:, 1993, Umar Xayyom. Navro'znoma. -T.:, 1990, A.Sher. Diniy-badiiy asarning estetik mohiyati. «Guliston» jurnali, 2001 yil, 5-son, A.SHer. Ibrat ko'zi. «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 1996 yil, 7-8, 9-10 – sonlar, Sher A. Tasavvuf, azzaliy va go'zallik falsafasi. «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 2002 yil, 2-son, Gazali Abu Xamid. Voskreshenie nauk o vere. -M.:, 1980, Istoriya estiticheskoy misli. V 6 tomax, t-1. -M.:, 1985, Sochineniya italyanskix gumanistov epoxi vozrajdeniya (XV vek). -M.:, 1985.
--	--	--

2.4. Qishloq va suv xo'jaligi.

T\R	Bo'lim va mavzularning nomi	Ta'lim, gumanitar sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
-----	-----------------------------	--

1.	Mavzu. Estetik ong va estetik faoliyat Estetik ong va uning individuallik xususiyati. Estetik ongning asosiy unsurlari: estetik ehtiyoj va estetik munosabat; estetik tuyg'u va estetik did; estetik baho va estetik ideal; estetik qarashlar va estetik nazariyalar. SHaxs estetik ehtiyojini tarbiyalash muammolari. Estetik faoliyat mehnatning o'ziga xos turi sifatida. Estetik faoliyatning ijodiylik xususiyati, turli ma'naviy faoliyatlarning estetik ibtidoga asoslanishi, mehnat, o'yin va san'atning o'zaro munosabatlari, estetik faoliyatning turlarga bo'linishi, san'atning o'ziga xos estetik faoliyat sifatidagi ahamiyati, hunar va san'at, hunarning estetik vazifalari, xalq ijodi va professional ijodiy faoliyat. Amaliy mashg'ulot rejasi Estetik ong va uning tuzilmasi. 2. Estetik faoliyat mehnatning o'ziga xos turi sifatida 3. Estetik faoliyat turlari.	<u>Sohaga bog'lash:</u> Mavzuni sohaga bog'lash uchun estetik ong va estetik faoliyat tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi ahamiyatini sohaga oid misollar asosida tushuntirish tavsiya etiladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini estetik jihatdan talab darajasida qayta ishlashning usullarini yaratish, qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirishning zamonaviy estetik dizaynini shakllantirish, qishloq xo'jaligida zamonaviy dizaynga ega bo'lgan irrigatsiya tarmoqlarini barpo etish estetik ongning qay darajada soha bilan bog'liq ekanligini o'zida ifoda etadi. <u>Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash:</u> Seminar mashg'ulotini samarali va yuqori saviyada o'tkazish uchun o'quvchilarni guruhlarda va o'zaro hamkorlikdagi o'qitish usullaridan keng foydalanish o'quv vizual materiallari, "Aqliy xujum" va "Keys-stadi" usullaridan foydalanish darsning samarali o'tishini ta'minlaydi. Seminar mashg'ulotining samaradorligini oshirish maqsadida videoma'ruza, multimediya vositalari, grafproektor, flip-chat va boshqa kompyuter vositalarini qo'llash jarayonlarini oldindan texnologik xaritada rejalashtirib olish maqsadga muvofiq..
-----------	---	--

		<u>Adabiyotlar:</u> 1. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. -T.:, 1996. 2. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.:, 1998. 3. Umarov E. Estetika asoslari. -T.:, 2003. 4. Bezmozdin L. V mire dizayna. -T.:, 1990. 5. Borev YU. Estetika. -M.:, 1989. 6. Zemper G. Prakticheskaya estetika. -M.:, 1970. 7. Kazarinova V. Krasota, vkus, ekanomika. -M.:, 1985. 8. Morris U. Iskustva i jizn. - M.:, 1973.
--	--	---

2.5. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy taminot.

T\R	Bo'lim va mavzularning nomi	Ta'lim, gumanitar sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
1.	Mavzu. Estetikaning asosiy tushunchalari. Estetik mezoniy tushunchalar (kategoriyalar) - estetik bilishning muhim omili sifatida. Nafosat - estetikaning keng qamrovli mushtarak mezoniy tushunchasi. Go'zallik mezoniy tushunchasi. Go'zallik haqidagi tasavvurning o'zgaruvchanligi, go'zallikka sifatning ta'siri, go'zallik va manfaat, go'zallikning san'atda namoyon bo'lishi, go'zallik va xunuklik. Ulug'vorlik mezoniy tushunchasi. Ulug'vorlikning favqulodda salbiy	<u>Sohaga bog'lash:</u> Mavzuni sohaga bog'lash uchun eng avvalo o'quvchi estetikaning asosiy mezoniy tushunchalari to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi, bu tushchalarning inson, jamiyat, shu jumladan, sog'liqni saqlash sohasidagi ahamiyatini anglab etishi zarur. Sog'liqni saqlash sohasining har-bir jabxasida go'zallik o'z ifodasini topgan. Masalan, har bir tibbiyot xodimining oppoq libosda kiyinishi, tibbiy jihatdan ozodalik zarurat bo'lsa estetik jihatdan go'zallikni ifodalaydi, stomatalogiya dizaynida esa

hissiyotlarga asoslanishi. Ulug'vorlikka son va miqyosning ta'siri, tabiatdagi ulug'vorlik, ulug'vorlikning san'atda namoyon bo'lishi, ulug'vorlik va tubanlik. Fojiaviylik mezoniyl tushunchasi. Fojiaviy to'qnashuv va uning asoslari, fojiaviylik va estetik ideal, fojiaviylikning san'atda namoyon bo'lishi, fojia(tragediya) - san'at janri sifatida, fojiaviy ziddiyat va fojiaviy qahramon. Forig'lanish. Kulgililik mezoniyl tushunchasi. Kulgili holat, kulgi va uning inson hayotidagi o'rni, hazil hissi, kulgililikning san'atda namoyon bo'lishi va uning ifoda shakllari (hajv, mutoyiba, kinoya, kesatiq, istehzo) Kulgi (komediya) - san'at janri sifatida. Kulgining forig'lantirish xususiyati. <i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i> 1. Estetik mezoniyl tushunchalar – kategoriyalarning ahamiyati. 2. Go'zallik va xunuklik tushunchalari. 3. Ulug'vorlik va tubanlik tushunchalari. 4. Fojiaviylik va kulgulilik tushunchalari. Asosiy estetik tushunchalarning o'zaro aloqalari	sog'lom tishlarni asrash va ularni yaratish nafaqat inson jismining butunligini saqlaydi, balki unga go'zal husn ham beradi. Bugungi kun farmatsevtikasida erishilgan yutuqlar inson tafakkuri qay darajada ulug'vor ishlarga qodir ekanligi haqida misollar asosida tushuntirish tavsiya etiladi. . <u>Yangi innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash:</u> .. Seminar mashg'ulotini samarali va yuqori saviyada o'tkazish uchun kichik guruhda ishlash, "FSMU" texnologiyasi, hamkorlikda ishlaymiz kabi interfaol metodlardan foydalanish tavsiya qilinadi. Seminar mashg'ulotining samaradorligini oshirish maqsadida videoma'ruza, multimediya vositalari, grafproektor, flip-chat va boshqa kompyuter vositalarini qo'llash jarayonlarini oldindan texnologik xaritada rejalashtirib olish maqsadga muvofiq.. <u>Adabiyotlar:</u> 1. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.- T., "Ma'naviyat" 2008. 1. Umarov E. Estetika. -T.:, 1995. 2. Byork E. Filosofskoe issledovanie o proisxojdienie nashix idey o vozvo'shennom i prekrasnom. -M.:, 1979. 3. Gazali Abu Xamid. Voskreshenie nauk o vere. - M.:, 1980. 4. Gegel G. Estetika v 4-tomax. t-1. -M.:, 1968.
--	--

		5. Гулыга А. Принципы эстетики. - М.:, 1987. 6. Tagor R. Prekrasnoe. // Tagor R. Sochineniya v 12- tomax. t- 11. -M.:, 1965. 7. Schiller. Philosophische Schriften //Schiller. Samtliche werke in zehn banden. Bd – 8. Berliner ausgabe, 1984. 8. Shestakov V. Esteticheskie kategorii. -M.:, 1983.
--	--	---

2.6. Xizmatlar-800 000

T\R	Bo'lim va mavzularning nomi	Ta'lim, gumanitar sohaga yo'naltirib o'qitish yuzasidan tavsiyalar
Qishloq va suv xo'jaligi	1-guruh uchun topshiriq <i>Qishloq taraqqiyoti va obodonlashtirish jarayonida atrof-muhit va uning estetik tuzilmasini yaratishda qanday estetik ong unsurlaridan foydalanish mumkin. Jadvalni to'ldiring:</i> 2-guruh uchun topshiriq 2-guruh uchun topshiriq. <i>Tabiat go'zallik va ulug'vorlik manbai, suv esa shu go'zallikning asosiy mezoni, inson mehnati asosida go'zallikni yaratuvchi yagona oliy jonzotdir. . Jadvalni to'ldiring:</i> 3-guruh uchun topshiriq <i>Xalq tilida nima uchun ona tabiiy tushunchasi ishlatiladi, uning inson faoliyati bilan bog'liq jihatlari qanday? .Ushbu fikrni tahlil qilib, quyidagi jadvalni to'ldiring:</i>

2.5. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

KEYS – STADI TA'LIM METODI

Keys – stadi ta'lim sohasiga nisbatan yangi kirib kelgan metod bo'lib, bu metod keng qo'llanilayotgan interfaol metodlar orasidan hali yetarlicha joy egallamagan. Kasb – hunar kollejlariida estetikani o'qitish jarayonida esa bu metod deyarli qo'llanilmayapti, desak, xato qilmaymiz.

Keys-stadi inglizcha sase - aniq vaziyat, stadi – ta'lim so'zlarining birikuvidan hosil qilingan bo'lib, aniq vaziyatlarni o'rganish, tahlil etish va *ijtimoiy ahamiyatga ega natijalarga* erishishga asoslangan ta'lim metodi hisoblanadi.

Keys-stadi metodi vaziyatlarni tahlil qilish metodidir.

Uning mohiyati quyidagidan iborat: o'quvchilarga bir tomondan amaliy muammoni aks ettiruvchi, ikkinchi tomondan bu muammoni hal etish jarayonida avvaldan belgilangan aniq bilimlarni egallashga zarurat tug'diradigan qandaydir

hayotiy vaziyatning mazmun – mohiyatini tushunish va tegishli xulosalarni chiqarish uchun taqdim etiladi.

Keys – metod sodir bo'lgan voqealar, sodir bo'lishi kutilayotgan voqealar oqibatida hosil bo'lgan *vaziyatni o'rganish, tahlil qilish va shu vaziyat bo'yicha qaror qabul qilishdan* iborat.

Keys – metod bo'yicha tayyorlanish va o'qitish

<i>Ishning bosqichlari</i>	<i>O'qituvchining faoliyati</i>	<i>O'quvchining faoliyati</i>
Tayyorgarlik	1. Keys (vaziyat) ning o'quv materiali mazmunini tanlaydi. 2. O'quvchilarning tayyorlanishi uchun asosiy va yordamchi materialni aniqlaydi. 3. Dars stsenariysini tuzadi	1. Keysni va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini oladi. 2. Mashg'ulotga tayyorlanadi.
Auditoriyada	1. Keysning dastlabki muhokamasini tashkil etadi. 2. O'quvchilarni guruhlarga bo'ladi. 3. Kichik guruhlarda keysning muhokamasiga rahbarlik qiladi va kerakli ma'lumotlar etkazib turadi.	1. Keysni tushunishga yordam beradigan savollar beradi. 2. Yechim variantlarini ishlab chiqadi, boshqalar fikrini eshitadi. 3. Qaror qabul qiladi yoki unda qatnashadi.
Auditoriyadan tashqarida	1. Qabul qilingan yechimlarni va o'rtaga tashlangan savollarni baholaydi. 2. O'quvchilar faoliyatini va ishini baholaydi	1. Mavzu yuzasidan berilgan keysni himoya qilishga yoki bajarilgan ishlar bo'yicha og'zaki, yozma hisobot berishga tayyorlanadi.

Demak, keys – stadi metodining o'ziga xos xususiyati *hayotiy faktlar* asosida muammoli vaziyatni yaratishdan iborat ekan. Bunday vaziyat orqali o'qitish kasb hunar kollejlarda kollej o'quvchilarini tanlagan kasblari bilan estetik bilimlarni bog'lash, ularni bo'lg'usi kasblarida estetikaning o'rnini ko'rsatish imkoniyatini beradi.

Kasb– hunar kollejlarda estetikani o'qitish jarayoni uchun bu kabi vaziyatlarni qanday yaratish mumkin?

Quyida keys metodiga asoslangan dars ishlanmasidan namuna keltiramiz.

Mavzu. Estetikaning asosiy tushunchalari.

MASHG'ULOT TEXNOLOGIYASI

Vaqt – 2 soat	O'quvchilar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Informatsion – ko'rgazmali dars.
Mashg'ulot rejasi	5. Estetik mezoniy tushunchalar – kategoriyalarning ahamiyati. 6. Go'zallik va xunuklik tushunchalari. 7. Ulug'vorlik va tubanlik tushunchalari. 8. Fojiaviylik va kulgulilik tushunchalari. 9. Asosiy estetik tushunchalarning o'zaro aloqalari.
<i>O'quv mashg'ulotlarining maqsadi:</i> Estetik mezoniy tushunchalar(kategoriyalar) – go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik, kulgulilikning ijtimoiy borliq, inson hayoti sohalarining har birida – ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, tabiatga munosabatda, madaniyat, turmush va hakozolarda olamni estetik o'zlashtirishning o'ziga xos ko'rinishi ekanligini ilmiy yoritish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - Estetik mezoniy tushunchalar – kategoriyalarning ahamiyatini tushuntirish. - Go'zallik va hunuklik tushunchalarining o'ziga xos xususiyatini yoritish. - Ulug'vorlik va tubanlik tushunchalarininig mohiyatini ochib beradi. - Fojiaviylik va kulgulilik tushunchalari badiiy tahlil etiladi. Asosiy estetik tushunchalarning o'zaro aloqalarini tushuntiradi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> O'quvchi: - Estetik mezoniy tushunchalar – kategoriyalarning mohiyatini tushunib oladi.. - Go'zallik va hunuklik tushunchalarining o'ziga xos xususiyatini bilib oladi. - Ulug'vorlik va tubanlik tushunchalarininig mohiyatini anglab etadi. - Fojiaviylik va kulgulilik tushunchalari badiiy tahlil qiladi. - Asosiy estetik tushunchalarning o'zaro aloqalarini tushunib oladi.
O'qitish uslubi va texnikasi:	Muammoli holatlarni echish, vaziyatlar maydoni bilan ishlash (keys – metod), insert, BBB jadval, asosiy tushunchalar jadvali.
O'qitish vositalari:	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r va h.k.
O'qitish shakli:	Individual, frontal, jamoa va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti:	Proektor va kompyuter, doska bilan ta'minlangan auditoriya.

Mashg'ulotning texnologik kartasi


Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	o'quvchi
1-bosqich. Kirish (15 min)	1.1 O'quvchilarning davomati va darsga tayyorgarligi aniqlanadi 1.2 Darsning mavzusi, rejasi maqsadi tushuntiriladi (1-ilova)..	1.1 Tinglaydilar. 1.2 Mavzuni yozib oladi.
2-bosqich asosiy (55 min)	2.1. Kategoriyaga ta'rif beriladi. (2-ilova). Asosiy estetik kategoriyalar va uning turlari slayd yordamida ko'rsatiladi. (3-ilova). 2.2.. O'quvchilarni estetik kategoriyalar, ularning mazmun-mohiyati bilan slayd yordamida tanishtiradi (4,5,6,7 - ilovlar). 2.3. Insert usulida 8-ilovadagi topshiriqni tayyorlashni taklif etadi. 2.4. Keys bilan ishlashni taklif etadi. (<i>sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasiga tegishli kasblarga doir ma'lumotlar, misollar orqali o'quvchilar diqqatini mavzuga qaratib, ularning darsga qiziqishini orttiradi</i>) (1-8 slaydlar).	2.1. Tinglaydi, yozib oladi. 2.2 Tinglab, yozib oladi. 2.3. Tinglaydi, o'ylaydi, savol-larga javob beradi, yozib oladi. 2.4. Tinglaydi, o'ylaydi, savol-larga javob beradi, yozib oladi, namoyishni tomosha qiladi.
3-bosqich YAkuniy (10 min)	3.1. Mashg'ulotni yakunlaydi talabalarni baholaydi va faol ishtirokchilarni rag'batlantiradi. 3.2. Mustaqil ish sifatida <i>referat beriladi</i>.	3.1. Eshitadilar. 3.2. Topshiriqni oladilar.

Estetikaning asosiy
tushunchalari.

Mavzu:

2-ilova.

Estetika kategoriyalari-go'zallik, ulug'vorlik, olijanoblik, fojeaviylik, kulgulilik ijtimoiy borliq, inson hayoti sohalarining har birida-
ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy-siyosiy
faoliyatda, tabiatda munosabatda, madaniyat,
turmush va hakazolarda olamni estetik
o'zlashtirishning o'ziga xos ko'rinishi.



Go'zallik - estetik kategoriya bo'lib, unda voqelik hodisalari va san'at asarlari o'z in'ikosini topadi, bu san'at asarlari insonga, estetik lazzat xis-tuyg'usini bag'ishlaydi.

Go'zallik voqelikni estetik o'zlashtirishning asosiy ijobiy formasidir.

Go'zallik o'zining bir necha qonuniyatlariga ega. 1) me'yor, 2) uyg'unlik, 3) predmetning yaxlitligi, 4) predmetning maqsadga muvofiqligi

Ulug'vorlik - bu so'zsiz buyuk, salmog'i bo'yicha ulkan hodisadir. Ulug'vorlikning namoyon bo'lish shakllari xilma-xildir. U behad ulkan shaklning butun ulug'vorligini ifoda etishi mumkin bo'lgan (jo'shqin okean, zilzila, jang manzarasi), osmonning butun rang-barangligini, okean va dengizlarning bepoyonligini, qudratli to'lqinlarning, tog'larning yuksakligini, vulqonlarning qaynash manzarasini, qutb shu'lasini ko'rsatishi mumkin. Ulkan arxitektura inshootlari – Misr piramidalari, Gotika uslubida qurilgan ibodatxonalar, O'rta Osiyo va Hindistondagi tarixiy yodgorliklar ulug'vorlikka misol bo'la oladi.

Fojiaviylikda voqeaning chuqur ziddiyatlari va to'qnashuvlari; hayot va o'lim, erkinlik va zarurat, aql va tuyg'u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy xususiyatlar namoyon bo'ladi.

San'at asarlarida fojiaviylik yahlit namoyon bo'ladi. Fojiaviy holat insonning u yoki bu hatti-harakati natijasida paydo bo'ladi, bu harakat turli-tuman hayotiy kuchlor to'qnashuvi jarayonida vujudga keladi, rivojlanadi. Fojiaviylik boshqa estetik tushunchalardan qanchalik farq qilmasin, ularni go'zallik va xunuklik kabi ijtimoiy estetik orzular bilan bog'liq holda, ularning tarixiy va nisbiy tabiatini inobatga olgan holda mushohada qilish zarur bo'ladi.

Estetik kategoriyalarning navbatdagisi-kulgulilikdir. Biz bilamizki, san'at juda qadim zamonlardan beri faqat jiddiy narsalarnigina emas, balki hayotdagi kulgulilikni g'am tasvirlab keladi. Kishilar hayotidagi kulgili voqealarni san'atning har bir janri-quvnoq, sho'x qo'shiq, o'tkir, hajviy hikoya, teatr yoki kinokomediya o'ziga xos usulda ifoda etadi.

Kulguli voqea-hodisalar, ko'pincha munofiqlik, tekinxo'rlik, yolg'onchilik, kekkayishlik, yengil tabiatlilik kabi kamchiliklar, nuhsonlardan kulish bilan bog'liq bo'ladi.

“Insert usuli”

Insert - samarali o'qish va fikrlash uchun belgilashning interfaol tizimi hisoblanib, mustaqil o'qib-o'rganishda yordam beradi. Bunda ma'ruza mavzulari, kitob va boshqa materiallar oldindan talabaga vazifa qilib beriladi. Uni o'qib chiqib, «V; +; -; ?» belgilari orqali o'z fikrini ifodalaydi.

Matnni belgilash tizimi

(v) - men bilgan narsani tasdiqlaydi.

(+) – yangi ma'lumot.

(-) – men bilgan narsaga zid.

(?) – meni o'ylantirdi. Bu borada menga qo'shimcha ma'lumot zarur.

Insert jadvali

Asosiy estetik kategoriyalar	V	+	-	?
Go'zallik				
Ulug'vorlik				
Fojiaviylik				
Kulgulilik				

9-ilova.

Matnni o'qing va o'z munosabatingizni bildiring

Estetik ta'limning meditsina xodimlarini kasbiy tayyorlashdagi ahamiyati beqiyosdir.

Bir qarashda meditsina va estetika inson faoliyatida bir-biriga yaqin bo'lmagan sohalaridek tuyuladi. Estetika barcha sohalarida ayniqsa meditsinada muhim ahamiyat kasb etadi chunki, meditsina xodimining har bir faoliyati go'zallikni talab etadi. Meditsina va estetika qadimdan "parallel" ravishda rivojlanib kelgan. "Meditsinada – go'zallik, ulug'vorlik, fojiaviylik" yonma-yon yuradi.

Hozirgi kunda davlat ta'lim standartlari, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasidagi kasb – hunar kollejlari mavjud o'quv fan dasturlarida qo'yilgan talablarga ko'ra, estetika fanini o'qitishning asosiy vazifasi tayanch kasbiy bilimlarni o'rganishda zarur bo'ladigan estetik bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iborat. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablarda esa kasbiy masalalarga estetik jihatdan yondashishga urg'u beriladi. Bu esa tibbiyot xodimlarining estetik tayyorgarligi natijalariga ta'sir etmasdan qolmaydi. Tibbiyot xodimining kasbiy tayyorgarlik darajasi esa bu natijalarga ham bog'liq.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasidagi kasb – hunar kollejlari o'quvchilarning estetik bilimini kasbiy yo'naltirish o'quvchilarning estetik bilimlarining ortishiga, ularning bo'lg'usi kasbiy faoliyatida estetikaning muhimligini anglashga, estetikaning kasb uchun ahamiyatli bo'lgan sifatleri va usullarini rivojlantirishga xizmat qilishi zarur.

1 –topshiriq

Mutaxassislik bo'yicha ishlash uchun zarur bo'lgan kasbiy sifatlarni yozing.

	<i>Hamshira</i>
1.	_____
2.	_____
3.	_____
4.	_____

Keysni tahlil qilish uchun yordamchi savollar.

1. SHaxsan sizga bugungi darsning qanday foydali tomonlari bor?
2. Estetikaning kasblar (sizning kasbingiz) bilan bog'liqligi nimalarda ko'rinadi?
3. Estetikaning bo'lg'usi kasbingiz bilan bog'lab o'rganish sizga nimalarni beradi?
4. Estetik bilimlar bilan kasbiy bilimlarning bog'lanishi orqali qanday natijalarga erishish mumkin?
5. Tashqaridan berilgan maslahatlarga quloq solasizmi?
6. Qanday ma'lumotlar siz uchun muhim hisoblanadi?
7. Qanday ma'lumotlarni siz foydali deb hisoblaysiz?
8. Estetikadan olayotgan bilimlar hajmi bilan kasbiy faoliyat orasida qanday bog'liqlik bor?

3.6. Xizmatlar.

MASHG'ULOT TEXNOLOGIYASI

Mavzu:	San'at estetikasi.
Vahti – 2 soat	O'quvchilar soni: 25-30 nafar
O'quv mashg'ulotining shakli	Informatsion – ko'rgazmali dars
Mashg'ulot rejasi	1.San'atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati. 3. San'at turlari. 4. San'at turlarining o'zaro aloqadorligi. 5. Badiiy ijod jarayoni va san'at asarini estetik idrok etish.
<i>O'quv mashg'ulotlarining maqsadi:</i> San'atning vujudga kelishi va uning estetik mohiyati.San'atning turlarga bo'linishi. Badiiy ijod jarayoni va san'at asarini estetik idrok etish kabi tushunchalarni ilmiy o'rganish.	
<i>Pedagogik vazifalar:</i> - San'atning vujudga kelishi va uning estetik mazmun-mohiyatini yoritadi. - San'at turlari haqida ma'lumot beradi. -San'at turlarining o'zaro aloqadorligini misollar asosida tushuntirish. - Badiiy ijod jarayoni va san'at asarini estetik idrok etish haqida tushuntiradi.	<i>O'quv faoliyatining natijalari:</i> O'quvchi: - San'atning vujudga kelishi va uning estetik mazmun-mohiyatini bilib oladi. - San'at turlari haqida ma'lumot oladi. - San'at turlarining o'zaro aloqadorligini misollar yordamida tushunib oladi. - Badiiy ijod jarayoni va san'at asarini estetik idrok etish xususiyatlarini bilib oladi...
O'qitish uslubi va texnikasi:	Muammoli holatlarni yechish, guruhda ishlash, "FSMU" texnologiyasi.
O'qitish vositalari:	Proektor, tarqatma material, grafik organayzerlar, doska, bo'r va h.k.
O'qitish shakli:	Individual, frontal, jamoa va juftlikda ishlash.
O'qitish shart-sharoiti:	Proektor va kompyuter, doska bilan ta'minlangan auditoriya.

Seminar mashg'ulotining texnologik xaritasi:

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni:	
	O'qituvchi:	O'quvchi:
1-bosqich. Kirish (15 min)	1.1. Seminar mavzusini e'lon qiladi, darsning tashkil etilish texnologiyasi, uning maqsadi, dars mashg'ulotidan kutilayotgan natijalarni ma'lum qiladi; 1.2. "Aqliy xujum" usulidan foydalangan holda o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlaydi: - San'atning mohiyati, mazmuni va jamiyatdagi o'rnini yoritib bering? - San'at va estetikaning shaxs kamolatiga ta'sirini tushuntiring?	1.1 Eshitadi, yozib oladi, savollarga javob beradi, darsga ijodiy yondoshishga kirishadi.
2-bosqich. Asosiy qism (55 min)	2.1. O'quvchilarni kichik guruhlariga bo'lib chiqadi, kichik guruhlarda ishlash qoidasini tushuntiradi (1-ilova). 2.2. Har bir kichik guruhga "FSMU" metodi asosida ijodiy ishlashga topshiriq va yozma savollarni taqdim etadi.(2 va 3-ilovalar) Kutilayotgan natijalarni bayon qiladi. 2.3. Ijodiy ishlash jarayonida o'quv materiallari (ma'ruzalar matni, o'quv qo'llanma)dan foydalanishga ruxsat beradi. Ish boshlashni taklif etib, vaqtni belgilaydi. 2.4. Vaqt tugagach, taqdimotni boshlashni e'lon qiladi. 2.5. O'quvchilar javobini sharhlaydi, aniqlik kiritadi, to'ldirib boradi. 2.6. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan savollarni, ularga berilayotgan javoblarni tinglab, ularni sharhlaydi.	2.1.Tinglashadi, yozib oladilar. 2.2. Kichik guruh a'zolari birgalikda "FSMU" texnikasi asosida ijodiy ishlaydi. 2.3.Guruh a'zolari individual javob berib, bir-birini to'ldiradi. 2.4.Savollar tuzib, "Mulohazali savol muallifi" bo'lishga harakat qilishadi. 2.5.Ikkinchi kichik guruh a'zolari tomonidan berilgan savollarga javob

	2.7. “Mulohazali savol muallifi” bo’lgan guruh a’zolarini rag’batlantiradi.	beradilar, o’qituvchining izohini tinglaydilar, o’z bilimlarini to’ldirib boradilar.
3-bosqich: YAkuniy qism: (10 min)	3.1. Mashg’ulotga yakun yasaydi va o’quvchilarni baholaydi, ularni rag’batlantiradi. 3.2. “Yosh avlodda vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirishda san’atning o’rni” mavzusida referat yozishni vazifa qilib beradi	3.1. Tinglaydi, aniqlashtiradi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifani yozib oladi.

O’quv topshiriqlari

1-ilova:

Guruh bilan ishlash qoidalari
Guruh a’zolarining har biri: - O’z sheriklarining fikrlarini hurmat qilishlari lozim; - Berilgan topshiriqlar bo’yicha faol, hamkorlikda va mas’uliyat bilan ishlashlari lozim; - O’zlariga yordam kerak bo’lganda so’rashlari lozim; - Yordam so’raganlarga ko’mak berishlari lozim; - Guruhni baholash jarayonida ishtirok etishlari lozim; - “Biz bir kemadamiz, birga cho’kamiz yoki birga qutulamiz” qoidasini yaxshi bilishlari lozim

1-o'quv topshiriq
FSMU texnologiyasi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda xamda o'quv jarayonini bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya talabalarni o'z fikrini ximoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatini o'rgatadi. Tinglovchilarga tarqatilgan oddiy qog'ozga o'z fikrlarini aniq va qisqa xolatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

F – fikringizni bayon eting

S – fikringiz bayoniga sabab ko'rsating

1-guruh

Savol	Makon san'atiga san'atning qaysi turlari kiradi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

2-guruh

Savol	Vaqt san'atiga san'atning qaysi turlari kiradi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3-guruh

Savol	Vaqt-makon (qorishiq) san'atiga san'atning qaysi turlari kiradi?
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

3-ilova:

1-guruh uchun savollar:

1. Statik san'at deb qanday san'at turiga aytiladi?
2. Xalq amaliy bezak san'tiga misollar keltiring?
3. Natyurmort sa'atida san'atning qanday janri ifodalanadi.?

2-guruh uchun savollar:

1. Dinamik san'at deb qanday san'at turiga aytiladi ?
2. Badiiy adabiyot qanday turlarga bo'linadi ?
3. Markaziy Osiyoda musiqaning qanday janri yaratilgan ?

3-guruh uchun savollar:

1. Vaqt-makon san'ati nima uchun qorishiq san'at deb ataladi?
2. Ochiq sahna san'atining asosiy xususiyatini izohlab bering.
3. Kino sa'atida qaysi san'at turlarining o'ziga xos estetik jihatlari ifoda vositalari bilan uyg'unlashib ketadi?

4-ilova:

Baholash mezonlari va ko'rsatkichlari(ball)

Guruh	1-topshiriq (FSMU texnikasi)	2-topshiriq (Savollarga javoblar)	3-topshiriq (Mulohazali savol)	Ballar yig'indisi
	(2,0)	(2,0)	(1,0)	(5,0)
1				

GLOSSARIY

AKMEOLOGIYA - (akme – gullagan davr, oliy nuqta, yuqori cho'qqi) – o'qituvchi faoliyatida yuksak professionalikka ya'ni kasbiy etuklikka erishish bilan izohlanadi.

AKSIOLOGIYA - ijtimoiy sub'ektlar yaratgan pedagogik qadriyatlar yig'indisini ifodalab, insonni eng oliy qadriyat deb biladi va jamiyat rivojlanishining maqsadi deb hisoblaydi.

DARS – ta'limni tashkil etish shakli bo'lib, belgilangan vaqt (45 daqiqa) davomida o'qituvchi va o'quvchilarning aniq maqsad asosida, hamkorlikdagi faoliyati ko'rinishi.

DARS TIPLARI – aralash yoki kombinatsion dars; yangi bilimlarni bayon qilish darsi; bilim, ko'nikma, malakalarni takrorlash va umumlashtirish darsi; o'tilganlarni mustahkamlash darsi; tekshirish va baholash darsi.

DTS - ta'lim oluvchi shaxs egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal miqdori belgilangan me'yoriy hujjat.

INNOVATSIYA – yangilik, yangi g'oya kiritish.

INTERAKTIV METOD – («inter» - o'zaro va «act» - harakat qilmoq) o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorlikdagi faoliyatini, o'quv axborotlarini o'zlashtirish jarayonidagi faollikni, ijodkorlik, mustaqillikni shakllantirishga, shuningdek, o'qitish maqsadlarining to'laqonli amalga oshirishga yordam beruvchi chora-tadbirlar majmuasi.

ISTIQBOLLI O'QITISH – ta'lim mazmunidagi o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan axborotlar tizimini kichik hajmlarda oldindan o'zlashtirib borish.

KASBIY BILIM - aniq mehnat faoliyati doirasida bajariladigan ishlar uchun zarur bo'lgan nazorat, bilim, amaliy malaka va ko'nikmalar birlashmasidir.

KASBIY BILIMDONLIK - pedagogik jarayon mantig'ining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish, anglash.

KASBIY YO'NALGANLIK - shaxsning aniq bir faoliyat turiga bo'lgan qobiliyati, qiziqishlari, ehtiyoji va qat'iy ishonchi (A.B. Seyteshev); 2) kasb tanlash, qiziqish, qat'iy ishonch hamda kasb tanlash motivlari o'rtasidagi aloqaning shaxsiy sifatlarda etakchilik qilishi (N.K.Stepankova).

KASBIY TAYYORGARLIK - maxsus nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, ma'naviy-axloqiy, kasbiy sifatlarni o'zlashtirish asosida shaxsning muayyan kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli olib borishga nisbatan fiziologik, psixologik va jismoniy tayyorgarlik darajasi.

KATEGORIYA (yun.kategoriya-belgi, izohlash) – olamdagi o'zgarish, rivojlanish, aloqadorlik va uzviy bog'liqlikka xos umumiy jihatlarning inikosi; narsa va hodisalarning o'ziga xosligi, o'xshashligi va farqlarini anglatuvchi, bilishning asosini tashkil etuvchi umumiy tushunchalar.

KOMMUNIKATIVLIK – bu o'qituvchining alohida xususiyati bo'lib, unda o'quvchilar va hamkasblari bilan o'zaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi. Bunda pedagogik faoliyatning samaradorligi uning muloqotchanligiga bog'liq bo'ladi.

KOMPITENTLIK - shaxsning o'zlashtirgan muayyan bilim, ko'nikma va tajribasini ijtimoiy-kasbiy sohadagi aniq vaziyatlardagi muammo va vazifalarni echishga qodirlik darajasi, yaroqliyligi.

KONSTRUKTIVLIK - (loyihalay olish qobiliyatiga egalik) – bu pedagogning shaxsiy faoliyati va tarbiya maqsadlarini hisobga olgan holdagi faolliklarini alohida loyihalashtirishni ko'zda tutadi.

MAHORAT – kasbiy individuallikning yorqin ko'rinishi.

METOD – 1) tabiiy va ijtimoiy hayot hodisalarini tadqiq qilish, bilish usuli, harakat qilish tarzi; 2) maqsadga eltuvchi yo'l, ya'ni, maqsadga erishish yo'lidagi hatti-harakatlarning o'ziga xosligidir.

MILLIY MODEL - kadrlar tayyorlashning milliy tuzilmasi. Milliy modelning tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan ishlab chiqarish.

MODEL - (frantsuzcha “modele” – “namuna”, lotin tilida “modulus” – “me'yor”) – qandaydir ob'ektning shartli qiyofasi, ob'ekt va ob'ekt haqidagi inson bilimlari o'rtasidagi munosabatni aks ettirish uchun xizmat qiladi.

MOTIV – ma'lum ehtiyojlarni qonildirish uchun asos bo'ladigan kishining ichki harakatlari mazmuni.

PEDAGOGIK JARAYON – ta'lim masalalari, uning taraqqiyotini kashf qilishga qaratilgan, maxsus tashkil etilgan pedagog va tarbiyalanuvchilarning o'zaro munosabatlari.

PEDAGOGIK KVALIMETRIYA – pedagogik jarayon sifat darajasining o'lchovchi.

PEDAGOGIK MAHORAT - yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishi, pedagogik texnikani mukammal egallash, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi va kasbiy faoliyatdagi individuallikning yorqin ko'rinishi.

PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA - ta'lim oluvchining ichki imkoniyatlari va o'qituvchining innovatsion tayyorgarligiga tayangan holda ishlab chiqilgan va ta'limiy maqsadga erishishni kafolatlovchi o'quv-tarbiya jarayonining loyihasi.

PEDAGOGIK FAOLIYATGA YO'NALGANLIK - 1) shaxsning “pedagogik kasbga qiziqishi va faoliyatning ushbu turi bilan shug'ullanishga bo'lgan

ishtiyoqi” (N.V. Kuzmina); 2) bolalarga bo’lgan munosabat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, pedagogik kuzatuvchanlik qobiliyati (V.A. Slastenin). Demak, shaxsning pedagogik faoliyatga yo’nalganligi uning dunyoqarashi, pedagogik kasbga qiziqishi, u bilan shug’ullanishga bo’lgan layoqati bilan belgilanadi.

PROFESSIOGRAMMA – ma’lum tizimga keltirilgan mehnatni psixologik tomondan o’rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko’rsatib berilgan xujjatdir.

REFLEKSIYA - lotincha “*refleksio*” – “orqaga qaytish”, sub’ektning ichki psixik holatlarini o’zida anglash jarayoni.

RIVOJLANISH - miqdor o’zgarishlaridan sifat o’zgarishlariga o’tishi, o’sish.

SAN’AT – ijtimoiy ong formasi sifatida voqelikni badiiy timsollar vositasida ijodiy aks ettirish.

TARBIYA - shaxsning ma’naviy va jismoniy holatiga muntazam va maqsadga muvofiq ta’sir o’tkazish ta’sirida shakllanuvchi uzliksiz jarayon.

TARBIYA TEXNOLOGIYASI - tarbiyaviy jarayonga kompleks yondashuvni anglatib, bu tarbiyaviy ta’sir va o’zaro hamkorlik maqsadlari, vazifalari, mazmuni, metodi va shakllarining birligidan iboratdir.

TA’LIM - maxsus tayyorgalikdan o’tgan kishilar rahbarligida o’tkaziladigan, ta’lim oluvchilarni bilim, ko’nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, qobiliyatlarni o’stirib, dunyoqarashlarni tarkib toptiruvchi jarayon.

TA’LIM MAZMUNI - ta’lim oluvchilarning o’qish jarayonida, egallab olishi lozim bulgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko’nikmalarning aniq belgilangan doirasi.

TEXNOLOGIK KARTA – texnologik jarayonning har bir bosqichi mazmuni to’liq yoritilgan hujjat.

TEXNOLOGIYA – 1) Ishlab chiqarish jarayonida ashyolar, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, ashyoning holati xususiyati, shaklini o’zgartirish metodlari to’plami. 2) texnos- san’at, mahorat, logos- ta’limot.

TRENING - tahsil oluvchi faoliyatiga mo’ljallangan ta’lim shakli bo’lib, nazariy ma’lumotlarni amaliy mashqlar orqali o’zlashtirilishini ta’minlaydi. U ta’lim beruvchi tomonidan o’qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o’rganishni ko’zda tutadi.

O’Z-O’ZINI ANGLASH – insonning o’zi haqidagi tasavvurlar - hulq-atvori, faoliyati va ehtiyojlarini anglashida namoyon bo’ladi.

O’QITISHNI INDIVIDUALLASHTIRISH – ta’lim mazmunini o’quvchi shaxsi, uning individual xususiyatlariga moslash.

O'QUV DASTURI - aniq fanning maqsadidan, o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan soat va bilim hajmidan kelib chiqib tuzilgan va mavjud jamiyatning g'oyaviy-siyosiy yo'nalishini o'zida aks ettirgan davlat hujjati.

O'QUV REJA - mutaxassis shaxsi bilishi va o'zlashtirishi zarur deb belgilangan o'quv fanlari, ularni o'qitish uchun ajratilgan soatlar va o'quv yilining tuzilishini belgilab beruvchi davlat hujjati.

FAOLIYAT – ongli ruhiy faoliyat bilan boshqariladigan kishining ichki, tashqi faolligi.

SHAXS – muayyan jamiyatning a'zosi bo'lgan, ruhiy, jismoniy, ma'naviy-ahloqiy barkamol bo'lgan, o'z hatti-harakatlarini ongli baholab, unga javob bera oladigan, jamiyat taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha oladigan inson.

ESTETIKA – (yun.aisthetikos - hissiy idrok, sezgi) – 1) voqelikni hissiy-ta'sirchan, emotsional o'zlashtirish; 2) estetik faoliyat qonuniyatlari to'g'risidagi fan.

ESTETIK ONG – olamni estetik anglash, dunyoga inson munosabatining sub'ektiv tomoni.

ESTETIKLIK – hozirgi zamon estetika fanining markaziy tushunchasi bo'lib, voqelik va inson faoliyatining turli sohalarida mavjud bo'lgan, xilma-xil estetik hodisalarga xos umumiy, zaruriy ichki, barqaror aloqa va bog'lanishlarni ifodalaydi.

ESTETIK TARBIYA – kishilarda estetik his, estetik ong, va munosabatni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaning alohida shakli.

ESTETIK MADANIYAT – estetik qadriyatlar, ularni yaratish va iste'mol qilish usullarining majmui.

ESTETIK MUNOSABAT – sub'ekt bilan ob'ekt o'rtasidagi o'zaro xarakat va o'zaro ta'sirning maxsus turi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 28 maydagi "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash hamda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, bugungi kunda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida o'quv jarayoni tegishli darajada tashkil qilinishi, mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim uslublari tayangan holda o'tkazilishi lozimligi, zamonaviy ilg'or pedagogik va yangi kompyuter, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanishi zarurligidan kelib chiqib, "Estetika" o'quv fani dasturini yanada takomillashtirish davr talabidir.

Bizning yangi avlodimiz, bilimli, o'tmishning har qanday illatlaridan ozod bo'lgan yoshlarimiz bugungi kunda mamlakatimizni demokratlashtirish va liberallashtirish, uni yangilash va ishonchli tarzda ravnaq toptirishning hal qiluvchi harakatlantiruvchi kuchiga aylanib bormoqda. O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlash va kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirish, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisoslik olishini ta'minlash, shuningdek, bu borada yoshlarga estetik ta'lim-tarbiya berish, ularning estetik ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida ta'lim tizimining barcha turlarida estetika fanlarini o'qitish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus vazirliklarining 2010 yil 21 oktyabrdagi 396-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan va akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun estetika fani uzviylashgan o'quv dasturi sifatida uzluksiz ta'lim tizimiga joriy etilgan.

Ushbu metodik qo'llanma o'quvchilarni tanlagan kasbiga bog'lagan holda o'qitish, ularda kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishda va kelgusida o'z sohalari bo'yicha yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishlarida muhim rol o'ynaydi. Mavzularni kasbiy yo'naltirib o'qitish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan (misollar, qiyosiy materiallar, manbalar va boshqalar). Tavsiyalar bo'yicha foydalaniladigan adabiyotlar, manbalar va *Internet* saydlari kiritilgan.

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.:, 2003.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.:, 1998.
3. I.A.Karimov. "Barkamol avlod orzusi". -T.:, 2000
4. I.A.Karimov. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasiga ishonaman. «Fidokor» gaz., 2000 yil, 8 iyun.
5. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch.- T., "Ma'naviyat" 2008.
6. E.Umarov. Estetika asoslari. -T.:, 2003.
7. Guliyga A. Printsipi estetiki. -M.:, 1987.
8. Ovsyannikov M. Istoriya esteticheskoy misli. -M.:, 1984.
9. M.X.Tilavoldieva, SH.Xolmatova, M.Mamadjonova, U.Mamayusupov. Etika, estetika va mantiq.(uslubiy qo'llanma)-T., 2011.
10. Estetika. Slovar. -M.:, 1989.

2. Qo'shimcha adabiyotlar

1. Anbar Otin. Qarolar falsafasi. //Anbar Otin. She'rlar, risola. -T.:, 1970.
2. Aristotel. Poetika. -T.:, 1980.
3. Atoullloh Husayny. Badoyi' us-sanoyi'. -T.:, "F.Fulom", 1981.
4. Davlatshoh Samarqandiy. Shoirilar bo'stoni. -T.:, "F.Fulom", 1981.
5. Ibn Sino. Salomon va Isbol. -T.:. "F.Fulom", 1980.
6. Navoiy. Majolis un-nafois.//Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 13 -jild. -T.: «Fan» 1998.
7. Navoiy. Mahbub ul-qulub. //Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik, 14-jild. -T.:, «Fan» 1998.
8. Fitrat. Adabiyot qoidolari. -T.:, «O'qituvchi», 1995.
9. Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.:, A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1990.
10. Xayyom. Navro'znoma. -T.:, «Mehnat», 1990.
11. Cho'lpon. Adabiyot nadir. -T.:, «Cho'lpon», 1994.
12. Sher A. Diniy-badiiy asarning estetik mohiyati. «Guliston» jurnali, 2001 yil, 5-son.
13. Sher A. Ibrat ko'zi. «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 1996 yil, 7-10 –sonlar.
14. Sher A. Tasavvuf, Fazzoliy va go'zallik falsafasi. «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 2002 yil, 2-son.
15. Sher A. Sharq falsafasi va ekzistentsiyachilik. «Sog'lom avlod uchun» jurnali, 1999, 1-son.

16. Baxtin M. Estetika slovenskogo tvorčestva. -T.: «Iskusstvo», 1979.
17. Bezmozdin L. V mire dizayna. -T.:, 1990.
18. Borev YU. Estetika. -M.:, Politizdat, 1988.
19. Vo'got'skiy L. Psixologiya iskusstva. -M.:, «Iskusstvo», 1965.
20. Byork E. Filosofskoe issledovanie o proisхоjdenie nashix idey o vozvishennom i prekrasnom. -M.:, «Iskusstvo», 1979.
21. Gadamer G. Aktualnost prekrasnogo. -M.:, «Iskusstvo», 1991.
22. Gazali Abu Xamid. Voskreshenie nauk o vere. -M.:, «Nauka», 1980.
23. Gegel G. Estetika v 4-tomax. -M.:, «Iskusstvo», 1968-1973.
24. Zemper G. Prakticheskaya estetika. V 4-tomax. -M.:, «Iskusstvo», 1970.
25. Losev A. Estetika vozrajdjenja. -M.:, «Мысль», 1964.
26. Kazarinova V. Krasota, vkus, ekonomika. A., «Ekonomika», 1985.
27. Kamyu A., Buntuyushiy chelovek. -M.:, Politizdat, 1990.
28. Xoum G. Osnovanie kritiki. -M.:, «Iskusstvo», 1977.
29. Kant I. Kritika sposobnosti sujdeniya. // Kant I. Sochineniya v 3-tomax. T. 3. -M.:, «Misl», 1964.
30. Kant I. Nablyudeniya nad chuvstvom prekrasnogo i vozvishennogo. // Kant I. Sochineniya v 6-tomax. T-2. -M.:, «Мысль», 1964.
31. Morris U. Iskustvo i jizn. -M.:, «Iskustvo», 1973.
32. Nitshe F. Iskustvo i xudozhnik. // Nitshe F. Sochineniya v 2-x tomakh. T. 1, -M.:, 1990.
33. Ortega-i-Gasset X. Degumanizatsiya iskusstva. -M.:, 1991.
34. Samosoznanie evropeyskoy kulturi XX veka. -M.:, Poltizdat, 1991.
35. Solovyov V. Krasota v prirode. // Solovyov V. Sochineniya v 2-tomax. T. 2. -M.:, «Misl», 1990.
36. Tagor R. Prekrasnoe. // Tagor R. Sochineniya v 12-tomax. T-11. -M.:, 1965.
37. Freyd Z. Budushee odnoy illyuzii. // Sumerki bogov. -M.:, Politezdac, 1990.
38. Freyd Z. Ostoumie i ego otnosheniek bessoznatelnomu. S-Pb. -M.:, «Universitetskaya kniga», 1997.
39. Shelling Y. Filosofiya iskusstva. -M.:, «Мысль», 1966.
40. Shestakov V. Esteticheskie kategorii. -M.:, «Iskusstvo», 1983.
41. Shiller F. Pisma ob esteticheskom vospitanii cheloveka. // F. Shiller. Sochinenie v 7-tomax. T-6. -M.:, GIXL, 1957.
42. A.Shopengauer. Osnovnye idei estetiki. // A.Shopengauer. Izbrannie proizvedeniya. -M.:, «Prosvechenie», 1992.
43. Shefstberi E. Esteticheskie opyty. -M.:, «Iskusstvo», 1975.
44. Yung K. Ob otnoshenii analiticheskoy psixologii k poezii. // Yung K. Soznanie i bezsoznatelnoe. S-Pb. -M.:, 1997.
45. Hassan I. The Postmodern Turn. Essays in Postmodern Theori and Culture. Ohio State University Press, 1987.

46. Gilson E. Introduction aux arts du beau. –Paris: 1963.
47. Heidegger M. Die Kunst und der Raum. Sankt Gallen: -Erker: 1969.
48. Huizinga J. Das Problem der Renaissance. Renaissance und Realismus. Darmstadt, 1971.
59. Gadamer H. Lob der Theorie. Frankfurt am Main, 1984.
50. Schiller. Philosophische Schriften //Schiller. Samtliche werke in zehn banden. Bd – 8. Berliner ausgabe, 1984.

Elektron ta'lim resurslari:

1. [www. pedagog. uz](http://www.pedagog.uz)
2. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)
3. <http://www.Lawlibrary>

Mundarija

Kirish.....	3. bet
I bob. Kasb – hunar ta’limida estetika.....	4 bet
1.1. Estetikani o’qitishning maqsad, mazmun va vazifalari.....	4. bet
1.2. Estetikani ta’lim sohalariga yo’naltirish imkoniyatlari.....	6. bet
1.3. ”Estetika” fanini o’qitish jarayonida ilg’or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo’llash.....	7. bet
II bob. “Estetikani” ta’lim sohalariga yo’naltirish bo’yicha tavsiyalar.....	17 bet
2.1. Ta’lim, gumanitar fanlar va san’at.....	17. bet
2.2. Ijtimoiy fanlar, biznes va huquq.....	18. bet
2.3. Muhandislik, ishlov berish va qurilish.....	19. bet
2.4. Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot.....	22 bet
2.5. Qishloq va suv xo’jaligi	21. bet
2.6. Xizmatlar.....	26. bet
III bob. “Estetika” fanini o’qitish jarayonida ilg’or pedagogik uslub va texnologiyalarni qo’llash	27. bet
3.1. Estetika predmeti, uning maqsad va vazifalari.	27 bet
3.2. Qadimgi dunyo estetikasi.	40 bet
3.3. O’rta asrlar mutafakkirlarining estetik qarashlari.....	46 bet
3.4. Estetik ong va estetik faoliyat.....	51 bet
3.5. Estetikaning asosiy tushunchalari.	60 bet
3.6. San’at estetikasi.....	68 bet
Glossariy.....	73 bet
Xulosa.....	77. bet
Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	78. bet

Buyurtma 12. Adadi 100 . Hajmi 5,25 b/t.
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.

84,1,82,3,80,5,78,7,76,9,74,11,72,13,70,15,68,17,66,19,64,21,62,23,60,25,58,27,56,29,54,31,52,33,50,35,48,37,46,39,44,41

2,83,4,81,6,79,8,77,10,75,12,73,14,71,16,69,18,67,20,65,22,63,24,61,26,59,28,57,30,55,32,53,34,51,36,49,38,47,40,45,42,43